

## TIL O'RGANISHDA PSIXOLOGIK TO'SIQLAR VA ULARNI YENGISH YO'LLARI

*Norboyeva Zuhra Alijon qizi*  
[alidjanovnaaa999@email.com](mailto:alidjanovnaaa999@email.com)

*O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti,  
Ingliz filologiyasi fakulteti, Toshkent, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tilini o'rganishda uchraydigan psixologik to'siqlar va ularning inson ongiga ta'siri haqida ma'lumot beriladi. Til o'rganish jarayonida qo'rquv, ishonchsizlik, motivatsiyaning pasayishi va stress kabi omillar til egallash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bihevioristik, kognitiv va ijtimoiy o'rganish nazariyalari asosida psixologik omillarning til o'rganishga qanday ta'sir etishi yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ta'lim metodlari yordamida til o'rganish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** *Til o'rganish, psixologik to'siqlar, motivatsiya, o'ziga bo'lgan ishonch, stress, ijtimoiy o'rganish nazariyasi, interaktiv metodlar, ijtimoiy hayot, lingvistik rivojlanish, o'zaro ta'sir, o'quv motivatsiyasi.*

Zamonaviy dunyoda chet tillarini bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy muvaffaqiyatga erishish va jamiyatga moslashish uchun ham katta ahamiyatga ega. Biroq, ko'plab odamlar til o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, va bu qiyinchiliklarning aksariyati psixologik to'siqlar bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pincha, odamlar yangi til o'rganishda qo'rquv, ishonchsizlik, motivatsiyaning pasayishi yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish kabi muammolarga duch kelishadi. Til o'rganishning psixologik jihatlari uzoq vaqtidan beri olimlar e'tiborida bo'lib kelgan. XX asr boshlarida bu jarayon bihevioristik yondashuv asosida tushuntirilgan, ya'ni til o'rganish odatlar shakllanishi orqali amalga oshishi ta'kidlangan (Skinner, 1957). Keyinchalik, kognitiv va affektiv omillarning ham muhimligi aniqlandi. Noam Chomsky (1965) til o'rganish inson ongida mavjud bo'lgan universal grammatika asosida shakllanishini ta'kidlagan. Uning fikricha, bolalar tug'ma til qobiliyatiga ega bo'lib, ular tilni mantiqiy tartibda o'rganadi. Masalan, bolalar grammatik qoidalarni ongli ravishda bilmasalar ham, tabiiy ravishda to'g'ri gaplarni tuzishlari kuzatiladi.

Shu bilan birgalikda, Chomsky ham o'z nazariyasini "Language Acquisition Device" (Til o'zlashtirish qurilmasi) konsepsiysi orqali izohladi, bu esa inson ongida tilni avtomatik ravishda o'rganish qobiliyati mavjudligini bildiradi. Masalan, yosh bolalar hech qanday rasmiy ta'lim olmagan holda ona tilining murakkab grammatikasini to'g'ri tushunib, nutqida qo'llay oladi. Albert Bandura (1986) esa

"Social Learning Theory" (Ijtimoiy o'rganish nazariyası) orqali insonning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi va motivatsiyasi til o'rganish jarayonida hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatdi. Uning nazariyasiga ko'ra, insonlar o'z atrofidagi odamlardan o'rganishadi va o'zlarini ular bilan taqqoslaydilar. Masalan, agar bir kishi atrofidagi do'stlari yoki hamkasblari muayyan tilda erkin so'zlashayotganini ko'rsa, u ham bu tilni o'rganishga ko'proq ishtiyoy bildiradi. Bandura, shuningdek, "self-efficacy" (o'ziga bo'lgan ishonch) tushunchasini kiritgan bo'lib, bunda inson o'zining muvaffaqiyatga erisha olishiga qanchalik ishonsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini ta'kidlagan. Masalan, til o'rganayotgan odam o'ziga "Men buni eplay olaman" deb ishonsa, u til o'rganish jarayoniga yanada faolroq kirishadi va muvaffaqiyatga erishish ehtimoli oshadi. Bugungi kunda nevropsixologiya va texnologiyalar rivojlanishi bilan inson miyasi va psixologiyasiga mos keladigan interaktiv o'qitish metodlari ishlab chiqilmoqda (Dörnyei, 2001). Misol uchun, zamonaviy til o'rganish dasturlarida sun'iy intellektdan foydalangan holda individual o'quv rejalarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari Banduraring "self-efficacy" (o'ziga bo'lgan ishonch) tushunchasiga ko'ra, o'quvchilarning o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchini oshirish uchun amaliy mashqlar va ijobjiy fikrlash metodlaridan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Biroq, inson ongidagi qo'rquv, stress va motivatsiya muammolari hanuz dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Til o'rganish jarayonida juda ko'pchilik psixologik qo'rquv, hayajon va to'siqlarga uchrashadi. Ammo har qanday to'siq til o'rganuvchiga har xil ta'sir qiladi. Til o'rganishda uchraydigan asosiy psixologik to'siqlar ham turli xil omillarni o'z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, agar til o'rganishni boshlagan odamlarda qo'rquv va o'zlariga ishonchsizlik bo'lsa, ularning yangi til o'rganish jarayonida murakkab situatsiyalar va qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ko'pchilik odamlar yangi tilda gapirishdan uyalishadi yoki noto'g'ri talaffuz qilishdan qo'rqishadi. Masalan, ba'zi talabalar chet tilida so'zlashayotgan paytda aksentlari yoki grammatik xatolari ustidan kulishlaridan qo'rqib, nutq qilishdan o'zlarini tiyishadi. Bundan tashqari, chet elda ishlayotgan muhojirlar mahalliy tilda erkin so'zlay olmasliklari sababli ijtimoiy hayotdan chetlashib, o'zlarini yolg'iz his qilishlari mumkin. Keyingi asosiy to'siqlardan biri bu motivatsiyaning pasayishi ya'ni til o'rganishni boshlagan paytdagi dastlabki qiziqishning yo'qolib borishi hisoblanadi. Masalan, boshlang'ich bosqichda yangi til o'rganish jarayoni qiziqarli bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan takroriy mashqlar va natijalarning o'smay muqarrar turishi bunday natijaga sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Krashen (1982) tomonidan taklif qilingan 'Input Hypothesis' modeliga ko'ra, o'rganish jarayoni davomida qiyinchilik darajasi o'quvchining hozirgi bilim darajasidan biroz yuqori bo'lsa, bu yanada samarali natijalar beradi. Masalan, yangi so'zlar va iboralarni o'rganish qiyinlashganda, o'quvchilar o'zlarida progress ko'rmay, motivatsiyadan tushib qolishlari mumkin. yoki

natijalar sekin ko‘rinishi mumkin. Ba’zi talabalar yangi til o‘rganishni boshlaganlaridan bir necha oy o‘tgandan keyin ham sezilarli o‘zgarish ko‘rmaganlari sababli til o‘rganishni tashlab qo‘yishadi. Shu sababli, motivatsiyani saqlab qolish uchun muntazam rag‘batlantirish va realistik maqsadlar qo‘yish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘z-o‘zini past baholash ya’ni odamlar o‘zlarini boshqalar bilan solishtirish orqali til o‘rganishda muvaffaqiyatsiz bo‘lishiga ishonishlari hamda psixologik charchoq va stress sababli bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ish yoki o‘qish bilan band bo‘lgan insonlar yangi til o‘rganishga yetaricha vaqt ajrata olmasliklari sababli asabiylashishlari mumkin yoki ishdan keyin darsga borib dars davomida charchoq tufayli ham o‘rganolmasliklari mumkin. Til o‘rganish uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, har kim turli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, har bir yangi o‘rganilgan so‘z, tushunilgan grammatik qoidalar yoki muloqotdagi kichik yutuqlar rivojlanishning ajralmas qismidir. Shu sababli, bir nechta usullar til o‘rganish jarayonini osonlashtirish va undan zavqlanishga yordam beradi. Misol uchun, har bir kichik g‘alabalarga e’tibor qaratish kerak yoki ijobiy fikrlashni rivojlantirish kerak, ya’ni, xatolarni muvaffaqiyatga olib boruvchi qadam sifatida qabul qilish kerak. Shuningdek, til o‘rganish jarayonida innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish ham katta natijalar beradi.

Til o‘rganish jarayoni inson psixologiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, motivatsiya, ishonch va stress kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Til o‘rganishdagi eng katta to‘sqlivardan biri qo‘rquv va o‘ziga ishonchsizlik hisoblanadi. Til o‘rganishda kognitiv va ijtimoiy omillarning ahamiyati katta hisoblanadi. Motivatsiyani yo‘qotmaslik, xatolardan qo‘rmaslik va til o‘rganish jarayoniga ijobiy yondashish muvaffaqiyatga erishishda asosiy omillardan biridir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish til o‘rganishni osonlashtiradi. Shu sababli, til o‘rganishda individual yondashuv va ijobiy fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Bandura, A. (1986). *Fikr va harakatning ijtimoiy asoslari: Ijtimoiy kognitiv nazariya*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
2. Chomsky, N. (1965). *Sintaksis nazariyasining jihatlari*. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Dörnyei, Z. (2001). *Til o‘rganish sinflarida motivatsion strategiyalar*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Krashen, S. (1982). *Ikkinci tilni o‘zlashtirishda tamoyillar va amaliyat*. Oxford: Pergamon Press.
5. Skinner, B. F. (1957). *Og‘zaki nutq*. New York: Appleton-Century-Crofts.